

## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARINING NASHRLARIGA DOIR MULOHAZALAR.**

**Shomurodova Dilshoda Ilyos qizi,**

Buxoro davlat universiteti, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik II bosqich magistranti, Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 46-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ayrim g‘azallari matnidagi mulohazali o‘rinlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abdurashid Abdug‘afurov, Saidbek Hasan, Vahob Rahmonov, nashr, bayt, devon, qiyoslash.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasidir. Uning ijodiy merosini nashr qilish borasida anchagina ishlar qilingan. Jumladan, V. Rahmonov va N. Hotamov tomonidan “Bobur. Tanlangan asarlar” 1976-yil, Saidbek Hasan tomonidan “Mahrami asror topmadim...” 1993-yil, Abdurashid Abdug‘afurov tomonidan “Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon” 1994-yil, Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li tomonidan “Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari” 1996-yil. Shafiqa Yorqin tomonidan “Kobul nashriga takmila.” 2004-yil, V. Rahmonov tomonidan “G‘aribing andijoniydur” 2008-yil nashri kabi asarlar nashr qilingan. Ushbu nashrlar juda katta mehnat mahsuli natijasida yuzaga kelgan. Ammo bu nashrlarda yutuqlar bilan birga ayrim tafovutli o‘rinlar borligi ham ko‘zga tashlanadi. Quyida Saidbek Hasan tomonidan 1993-yilda, Abdurashid Abdug‘afurov tomonidan 1994-yilda hamda Vahob Rahmonov tomonidan 2008-yilda amalga oshirilgan nashrlar o‘rtasidagi matniy farqlarga doir mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqchimiz. Ushbu nashrlarda so‘z almashishi, so‘z yoki baytning tushishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi.

Jumladan:

“*Ochilib ikki sochi yuziga yoyilmishlar*”

deb boshlanadigan gʻazalning Saidbek Hasan tomonidan 1993-yilgi nashrida gʻazalning birinchi bayt, ikkinchi misrasidagi soʻz “qorongʻu” tarzida boʻlsa, Abdurashid Abdugʻafurov tomonidan 1994-yilgi nashrda esa “qorongʻu” tarzida keltirilgan, Vahobjon Rahmonov tomonidan 2008-yilgi nashrda ham “qorongʻu” shaklida keltiriladi.

Lugʻatda ushbu soʻzning har ikkala varianti ham mavjud boʻlib, “qorongʻi” maʼnosini ifodalaydi.

Gʻazalning ikkinchi baytida farqli jihatlar talaygina:

“*Chagʻir bagʻri qopidur barcha ishq ahligʻa  
Zihi alarki, bu maydin dame oyilmishlar*”

(Saidbek Hasan 1993-yilgi nashr)

“*Chogʻir bagʻir qonidur barcha ishq ahligʻa,  
Zihi alarki, bu maydin dami oyilmishlar*”

(Abdurashid Abdugʻafurov 1994-yilgi nashr)

“*Chogʻir bagʻir qonidur barcha ishq ahligʻa,  
Zihi alarki, bu maydin dame oyilmishlar*”

(Vahob Rahmonov tomonidan 2018-yilgi nashr)

Gʻazalning ushbu baytida har uchala nashrida ham farqlarni kuzatishimiz mumkin:

*Chagʻir, bagʻri, qopidur, dame*

*Chogʻir, bagʻir, qonidur, dami*

*Chogʻir, bagʻir, qonidur, dame*

soʻzlarida farq boʻlib, lugʻatga yuzlanganimizda “*chagʻir*” soʻzi berilmagan, “*chogʻir* – ichkilik, may, sharob” maʼnolarini ifodalaydi.

Gʻazalning nasriy bayoniga eʼtibor beradigan boʻlsak,

*May bagʻirdagi qondur, barcha ishq ahliga, Ajab, ularki, bu maydin bir nafas yiroqlashganlar,* degan maʼno anglashiladi.

Gʻazalning 4-baytida esa ,  
*Salohgʻa xirad ahli meni yovuq derlar,*  
*Koʻrungki ushbu chechanlar yiroq yangilmishlar*

(Saidbek Hasan 1993-yilgi nashr)

*Salohqa xirad ahli meni yovuq derlar,*  
*Koʻrungki, ushbu chechanlar yiroq yengilmishlar*

(Abdurashid Abdugʻafurov 1994-yilgi nashr)

*Salohqa xirad ahli meni yovuq derlar,*  
*Koʻrungki, ushbu chechanlar yiroq yongilmishlar*

(Vahob Rahmonov tomonidan 2018-yilgi nashr)

Ushbu baytda

*Salohgʻa, yangilmishlar*

*salohqa, yengilmishlar*

*salohqa, yongilmishlar*

ana shu soʻzlarda farqlar mavjud.

Lugʻatda: *saloh*— *parhezkorlik*

*yongilmish*— *yanglishgan*

Tahlillardan koʻrinib turibdiki, mumtoz ijodkorlarning asarlari nashridagi birgina soʻzning tushib qolishi yoki almashishi maʼnoga salbiy taʼsir qilishi bilan birga, muallifning asl maqsadidan oʻquvchini yiroqlashishiga sabab boʻladi. Albatta, Bobur devonlarining keying nashrlarida bunday nuqsonlarning oldini olish matnshunosligimiz oldidagi muhim muammolardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saidbek Hasan . Zahiriddin Muhammad Bobur. Mahrami asror topmadi.... - Toshkent: Yozuvchi, 1993.- 36 b.
2. Abdurashid Abdug‘afurov . Zahiriddin Muhammad Bobur.Devon. -Toshkent: Fan,1994.- 19b.
3. Vahob Rahmonov.Zahiriddin Muhammad Bobur.G‘aribing andijoniydur. - Toshkent: Sharq, 2008.-30b .
4. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, I tom .Toshkent :Fan nashriyoti, 1983.
5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom .Toshkent : Fan nashriyoti, 1983.
6. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, III tom .Toshkent : Fan nashriyoti, 1983.
- 7.Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, IV tom .Toshkent : Fan nashriyoti, 1983.